

FINANCIAL CAPACITIES OF THE LOCAL BUDGET IN THE DEVELOPMENT OF REGIONS

Abdurazzakov Bakhodir
Kokand State University

Annotation:

The article studies the problem of the financial capabilities of the local budget in the development of regions in connection with the declaration by the President of 2026 as the “Year of Neighborhood Development and Society Upliftment”. The structure of the local budget, sources of income entering it (local taxes, fees, transfers, etc.) are considered in detail. The impact of the local budget on socio-economic development, ways to strengthen and increase its effectiveness, and existing shortcomings (for example, the lack of circulation of bills) are also substantiated. The article also presents proposals for the distribution of budget expenditures and increasing local financial independence. The results of the study have practical value in improving local budget policy and strengthening financial support for the sustainable development of regions.

Keywords: local budget, budget capabilities, neighborhood development, socio-economic development, budget levels, taxes and fees, budget transfers, subventions and grants, budget balance, local financial sources

HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDA MAXALLIY BYUDJETNING MOLIVAVIY IMKONIYATLARI.

Abdurazzaqov Baxodir
Qo'qon Davlat uiversiteti

Annotatsiya:

Maqolada Prezident tomonidan 2026 yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan, hududlarni rivojlantirishda mahalliy byudjetning moliyaviy imkoniyatlari muammosi tahsil qilinadi. Mahalliy byudjetning tuzilishi, unga kiradigan daromad manbalari (mahalliy soliqlar, yig’imlar, transfertlar va boshqalar) batafsil ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mahalliy byudjetning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri, uni mustahkamlash va samaradorligini oshirish yo‘llari hamda mavjud kamchiliklar (masalan, veksellarning muomalasining yo‘qligi) asoslab beriladi. Maqolada byudjet sarf-xarajatlarini taqsimlash va mahalliy moliyaviy mustaqillikni oshirish uchun takliflar ham bayon qilinadi. Tadqiqot natijalari mahalliy byudjet siyosatini takomillashtirish va hududlarning barqaror rivojlanishiga moliyaviy ta’minotni kuchaytirish borasida amaliy qimmatga ega.

Kalit soʻzlar: mahalliy byudjet, byudjet imkoniyatlari, mahallani rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, byudjet darajalari, soliqlar va yigʻimlar, byudjet transfertlari, subvensiya va dotatsiyalar, byudjet balansiligi, mahalliy moliyaviy manbalar

2025 yil 26- dekabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy majlis minbaridan turib 2026 yilni “ Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili ” deb eʼlon qildilar. Maxalla infratuzolmasiga qoʻshimcha mablagʻ ajratiladi. Ushbu mablagʻlar fuqarolar yigʻini qaroriga asosan maxalla infratuzilmasini va boshqa ijtimoiy sohalarga yoʻnaltiriladi.

Bu vazifalarni bajarishda maxalliy byudjetning ahamiyati katta.

Maxalliy byudjet - byudjetining tegishli viloyat, shaxar.tuman,MFY pul mablagʻlarini jamgʻrmasini tashkil etuvchi bir qismi boʻlib, unda daromadlar manbaʼalari va ulardan tushumlar miqdori ,shuningdek, moliya yuli mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablagʻlar sarfi yoʻnalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Maxalliy byudjet davlat byudjetining muhim va ajralmas qismi boʻlib, u orqali hududlarning **ijtimoiy-iqtisodiy** ivojlanishini moliyaviy mablagʻlar bilan taʼminlab boriladi. Maxalliy byudjetlarning mavqeyini yanada oshirish byudjet siyosatini samaradorligini oshirishga hizmat qiladi. Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, byudjetlarni mustaxkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidagi manfaatdorligi va bu boradagi masʼuliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari bu narsa maxalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga ragʻbatlantiradi, joylarda byudjet intizomini muatahkamlaydi

Maxalliy byudjet daromadlari quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) Qonun hujjatlarida belgilangan meʼyorlarga muvofiq maxalliy byudjetlarga yoʻnaltirilgan maxalliy soliqlar, yegʻimlar,bojlar va boshqa majburiy toʻlovlar;
- 2) Qonun hujjatlarida belgilangan meʼyorlarga muvofiq maxalliy byudjetlarga oʻtkaziladigan umumdavlat soliqlari, yegʻimlari, bojlari va majburiy toʻlovlar;
- 3) Qohuh hujjatlarida belgilangan meʼyorlarga muvofiq davlat mulki obʻektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
- 4) Qonun hujjatlarida belgilangan meʼyorlarga muvofiq meʼros olish, hadya etish huquqi boʻyicha davlat mulkiga oʻtgan mablagʻlar;
- 5) Yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari,byudjet subtsidiyalari va byudjet ssudalari;
- 6) Yuridik va jismoniy shahslardan, shuningdek chet el davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- 7) Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiha.

Ozbekiston Respublikasida maxalliy byudjetlar tomonidan harajatlarni amalga oshirish uchun tegishli daromadlarga ega boʻlish kerak. Shuning uchun maxalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini tahlil qiladigan boʻlsak, avvalambor, daromadlarni shakllanishiga eʼtobor berish lozim. Bulardan tashqari , byudjet ijrosi jarayonida yuqori byudjet bilan yuzaga keladigan oʻzʼaro hisob-kitoblar hisobiga shakllanadigan daromadlar ham maxalliy byudjet daromadlari boʻlishi mumkin. Shunga muvofiq maxalliy byudjetlar daromadlari (maxalliy yegʻimlar va soliqlar) va yuqori byudjetdan ajratiladigan sjratmalar (umudavlat soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar,subsiidiyalari, ssudalar) hisobiga shakllanadi. **Maxalliy byudjetlarning eng birinchi daromad manbai boʻlib maxalliy soliqlar va yegʻimlar hisoblanadi.** Bu daromad

turlari qonunchilikka asosan maxalliy byudjetlarga biriktirilgan daromad manbai xisoblanadi. Maxalliy soliqlar va eyg'implar quyudagilardan iborat: 1) Mol-mulk solig'I; 2) Yer solig'I; 3) Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun jismoniy shahslardan olinadigan soliq; 4) Savdo huquqini olish uchun yeg'im va tovarlarning ayrim turlari, jumladan, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bilan savdo qilish huquqini olish uchun litsenziya yeg'implari; 5) Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shahslar hamda jismoniy shahslarni ro'yhatdan o'tkazish uchun yeg'im. Maxalliy soliqlar va yeg'implar maxalliy yeg'implar tarkibida birinchi moliyaviy manbaa sifatida qaralsa ham, bu soliqlar va yeg'implar maxalliy byudjetga biriktirilgan harajatlarni to'lashga moliyaviy manbaa bo'la olmaydi. Maxalliy byudjet balansligini ta'minlash uchun byudjet parametrlarini belgilash vaqtida yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratiladigan dotatsiya va subventsiya miqdorlari belgilanadi. Respublika byudjetida subventsiya va dotatsiyalar Qoraqolpag'ston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga tasdiqlangan Davlat byudjeti doirasida ajratiladi. Qoraqolpag'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan byudjet subventsiyalari va dotatsiyalari tumanlar va shaharlar byudjetlariga tegishli tasdiqlangan byudjetlar doirasida ajratiladi. Ularning miqdori quyidagilarga bog'liq bo'ladi: 1) Hududlarning moliyaviy holatiga; 2) Ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boahqa umumdavlat dasturlari va vazifalariga; 3) Hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farq; 4) Xar bir hududdagi aholi soniga; 5) Byudjet assignovatsiyasidagi hududlarga joylashgan tashkilotlar ehtiyojlariga; 6) Mintqalarda moliyaviy disbalansni yo'qotishga ta'sir etuvchi boshqa omillar. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risidagi"gi Qonununda asosan maxalliy byudjetlarga balansli daromadlar va harajatlarga ega bo'lishi kerak, maxalliy byudjetlarning taqchilliligi yo'l qo'yilmaydi.

Hududlarni rivojlantirishda maxalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari.

Ma'lumki, maxalliy byudjetlarni shakllantirishda quyudagi to'rt komponent muhim hisoblanadi: xarajat vakolatlarini ular va markaziy byudjet o'rtasida cheklash; soliqli daromadlarni taqsimlash; byudjet transfertlarini va qarzlari. Byudjet harajatlarini amalga oshirish vakolatlarini aniq ajratmasdan turib, soliqli daromadlarni taqsimlashda barqarorlikka erishib bo'lmaydi, hamda transfertlarning muvozanatlantiruvchi tizimni yaratib bo'lmaydi. Jahon tajribasidan ma'lumki, harajatlarning cheklashning umumqabul qilingan metod yo'q. Ammo optimal variantga erishishni imkonini beruvchi tamoillar mavjud. Dastlab quyidagi tushincha - davlat harajatlarini maqsadli amalga oshirish degani shuki, xizmatlarni maqsadli ravishda iste'molga maksimum daraja yaqin bo'lgan xukumatga biriktirib qo'yishdir. Bunda xizmatlarning bir organ tomonidan amalga oshirish harajatlari bir necha organ tomonidan amalga oshirishga qaraganda ancha arzon bo'lishini inobatga olish kerak. Shundagina iqtisodiyotda ham shtat birligi, mamlakat bo'yicha xizmat ko'rsatish birligi, yagona informatsion bazaga ega bo'lishlik kabi tamoyillarga amal qilingan boladi. Mazkur tamoyillar harajat vakolatlarini cheklashni soddalashtirib, ularning samaradorligini va adolatligini ta'minlaydi. Masalan, ijtimoiy ta'minot harajatlari markaziy byudjetga biriktirilishi kerak, chunki, har bir fuqaro qayerda yashashidan qat'iy nazar bir hildagi ijtimoiy ta'minotga ega bo'lishiga haqli. Shuning uchun ham bunday harajatlarni rejalashtirish va boshqarishni markazga biriktirish ularni amalga oshirishni esa maxalliy byudjet zimmasiga yuklash kerak. Chunki ular aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi va boshqa afzalliklarga ega. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet tizimi" to'g'risidagi qonunga asosan, umumdavlat xarakteridagi umumdavlat xizmatlarni hamda mahsus xarakterdagi (masalan: mahsus tibbiy muassasalar)



uchun markaziy hokimiyat javob beradi. Maxalliy byudjetlar esa o'zining administrativ hududi doirasidagi xarajatlarga javoblar bo'ladi. Maxalla administrativ hududida joylashgan, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga: Mudofaa, Milliy havfsizlik va sud organlarini saqlash kirsam, aniq bir hudud aholisi sharoitiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, hududiy ahamiyatdagi umumdavlat xizmatlariga umumta'lim, tibbiy sanitar yordam va boshqalarni misol qilish mumkin. Amaldagi "Byudjet to'g'risida"gi qonunda Respublika va mahalliy byudjetlar orasida harajatlarni taqsimlash mohiyati lo'rsatilgan, biroq, mazkur mazkur qonun doirasida umumta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot va boshqa jamiyat ehtiyojlari uchun qilinadigan harajatlarni amalga oshirishga bo'lgan mas'uliyatlarni cheklashning aniqroq reglamentatsiyasi talab etiladi. Mamlakatimizda maxalliy byudjet moliyaviy imkoniyatlarini oshirishd quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin: 1) Maxalliy budjetlarga ajratiladigan tartibga soluvchi daromadlar miqdorini qat'iy foizlarda va nisbatan uzoq vaqt mobaynida o'zgartirilmaydigan qilib belgilab qo'yish. 2) Byudjet ijrosi davomida maxalliy byudjetlarning daromad rejasini o'zgartirish orqali maxalliy byudjetlar tomonidan amalga oshirilayotgan harajatlarni daromadlar bilan ta'minlash amaliyotidan voz kechish. 3) Maxalliy ahamiyatga ega bo'lgan va byudjet tushumlari hisobidan qoplashga asoslangan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish. Bunda obligatsiyalardan keng ko'lamda foydalanish mumkin. Chunki obligatsiyalar qat'iy belgilangan foizlarda daromad keltiradi. Ularning qisqa muddatli qilib chiqarish, foiz to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish obligatsiyalarni bozor bahosini oshishiga olib keladi. Bunda maxalliy byudjetga obligatsiyalarning bozor bahosi va nominal qiymati o'rtasidagi farq ko'rinishida sof daromad keltirishi mumkin. Byudjet ijrosi jarayonida vujudga keladigan qisqa muddatli pul yetishmovchiligini oldini olish maqsadida obligatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maxalliy byudjet moliyaviy imkoniyatlarini oshirishning yana biri - maxalliy hokimiyatlarni byudjetlarga qarz majburiyatlarini jalb qilishning qonuniy asoslarini yaratish bilan bog'liqdir, ya'ni bunda maxalliy byudjetlarga tijorat veksellarini chiqarish xuquqini berish nazarda tutilyapti. Masalan: Rossiya federatsiyasida maxalliy hokimiyat organlari veksellar chiqarish yo'li bilan byudjet tashkilotlarining boshqa ho'jalik tashkilotlari oldida qarzdorligi muammosini xal qilish imkoniga ega bo'ladi. Lekin afsuski yurtimizda ba'zi bir kamchiliklar tufayli veksellar muomalada mavjud emas. Bu kamchiliklarni o'rganib chiqib, ma'lum bir doirada veksellarni joriy etishni ho'jalik muomalalarini tezlashtirib turli muammolarni hal etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T... "O'zbekiston" 2016
2. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet To'g'risida"gi qonuni T... O'zbekiston Adliya vazirligi 2017
3. 2025 yil 25 dekabr Oliy Majlis sessiyasi materiallari
4. B.Sh Safarov, I.I Ayubov. "Moliya va Soliqlar" darslik Toshkeht - 2020
5. <http://www.gov.uz>